

**NAMANGAN VILOYATINI RIVOJLANTIRISHDA
KICHIK BIZNESNI O’RNI**

Shaxidova Dilafruz Muxtarovna

Namangan to'qimachilik sanoati instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada iqtisodiyotning umumiyligi taraqqiyotini ta'minlashda mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda, tovarlar tanqisligini kamaytirish, texnologiya yangiliklarini joriy etishda va rivojlantirishida Namangan viloyatida kichik biznesning etakchi o'rinni egallaganligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, tadbirkorlik, mehnat resurslari, xorijiy investitsiyalar.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan, hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki, kichik biznes va tadbirkorlik sohasini rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda. Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko'p mablag' talab etmaydigan xo'jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining yuqori sur'atlarini ta'minlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste'mol bozorini shakllantirish va uni to'ldirish muammosini tez hamda tejamli tarzda hal etadi. Kichik korxonalar iste'mol talabining o'zgarishiga darhol moslashadi va shu yo'l bilan iste'mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta'minlaydi. Kichik biznes yangi ish o'rinnarini yaratishi bilan ishsizlik muammosini hal etishda muhim rol o'ynaydi. Hozirgi paytda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchi o'rinni tutmoqda. Oxirgi yillarda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni yil sayin ortib borayotgani sohaning izchil rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar davlatga bog'liq bo'lmagan holda, ya'ni katta kapital mablag' larsiz o'zлari ish joylarini joriy etishlari, hozirgi davrda bizda vaqtinchalik mavjud tovarlar tanqisligini kamaytirishlari va, hattoki, bu tanqislikni butunlay yo'qotishlari mumkin. Kichik korxonalar texnologiya yangiliklarini joriy etishda ham g'oyat katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotning umumiyligi taraqqiyotini ta'minlash, tovar va xizmatlar etishmovchiligini bartaraf etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik katta o'rin tutadi. Mehnat resurslari tez o'sayotgan va ishlab chiqarish joylashuvidan o'ziga xoslik sharoitlarida O'zbekistonda kichik korxonalar tizimini vujudga keltirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

— erkin mehnat resurslari, yangi xo'jalik munosabatlarining joriy etilishi, yangi mulkchilik shakllarining paydo bo'lishi natijasida ishlab chiqarishda bo'shatiladigan shaxslarning ijtimoiy ishlab chiqarishga ko'proq jalb etish, mulkchilikning yangi shakllari paydo bo'lishi;

— aholining, birinchi navbatda, yoshlarning moddiy, ma'na- viy va kasb darajasini ko'tarish;

— aholining sust harakatchanligini hisobga olgan holda sanoat ishlab chiqarishini aholi yashaydigan joylarga yaqinlashtirish hamda aholining xalq iste'moli mollariga ehtiyojlarini tolaroq qondirish;

— milliy va badiiy hunarmandchilikni tiklash, shuningdek kichik va o'rta shaharlar, qishloq aholi punktlarini rivojlantirishga yordam ko'rsatish, umuman, har bir mintaqaga uchun g'oyat muhim iqtisodiyot samaradorligini oshirish.

So'nggi besh yilda Namangan viloyatida korxonalar soni 15 mingtaga ko'payib, 32 mingtadan oshdi. Shu davrda xususiy biznes ishlab chiqargan mahsulotlar hajmi 1,6 baravar o'sib, 8,3 trillion so'mga yetdi. Bu – respublika bo'yicha eng yuqori sur'atlar.

— Tasavvur qiling, olti yil avval dotatsiyada bo'lган viloyat bugungi kunda mustahkam daromadga ega bo'ldi, zamonaviy sanoat va kuchli tadbirkorlar shakllandi

Namangan hech mubolag'asiz tadbirkorlar yurti, kichik va o'rta biznes markaziga aylandi.

Mamlakatimizda tadbirkorlarga munosib sharoit yaratish uchun joylarda texnopark va kichik sanoat zonalari tashkil etilmoqda. Namangan viloyatida bunday majmualar soni 73 taga yetdi.

Xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan qulay ishbilarmonlik muhiti natijasida Namangan viloyatida "Waikiki", "Baldessarini", "ZARA" kabi brendlari ostida kiyimlar ishlab chiqarilmoqda.

Yaqinda ochilgan "Fazman tekstil"da ham ish shundan boshlandi – Germaniyaning dunyoga mashhur "Digel" va "Carl Gross" brendlari bilan hamkorlik o'rnatildi.

Loyiha qiymati 20 million dollar bo'lib, buning hisobidan ulkan inshoot barpo etildi, Germaniya va Turkiyadan zamonaviy uskunalar olib kelindi. Mingga yaqin ish o'rni yaratildi.

Korxona yiliga 1 million dona kostyum-shim ishlab chiqarish quvvatiga ega. Ular brend talablariga mosligi bois xushbichim va yuqori sifatli. Joriy yilning o'zida 15 million dollarlik eksport qilish rejalashtirilgan.

mahallasida ham ishbilarmonlar, hunarmandlar ko‘p. Lekin ular uy sharoitida ishlar, imkoniyatlari cheklangan edi.

Shu bois mahalla yonidagi 10 gektarda zarur infratuzilmaga ega yaxlit majmua barpo etildi. Bu yerga 46 ta loyiha joylashtirilgan. Ularning 18 tasida ishlar yakunlanib, korxonalar faoliyatini boshlab yubordi, 2 mingdan ortiq ish o‘rnini ochildi.

“Master klass dizayn”, “Sifat yog‘och sanoat”, “Balans teks” korxonalaridagi ish jarayonini o’rgansak “Master klass dizayn” korxonasida yiliga 150 ming dona charm-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. “Sifat yog‘och sanoat” yiliga 1 ming 200 to‘plam mebellar, “Balans teks” 400 ming dona to‘qimachilik tovarlari tayyorlash quvvatiga ega. Ularda qo‘shti mahallalardagi avval ishsiz bo‘lgan yoshlar, xotin-qizlar mehnat qilib, daromad topmoqda. Mahsulotlar sifatliligi va hamyonbopligi bilan import o‘rnini egallamoqda.

Sanoat zonasidagi boshqa loyihalarda uskunalar o‘rnatilmoqda. Umuman, bu yerda tayyor kiyim-kechak, charm-poyabzal, qurilish materiallari, mebel, qog‘oz, oziq-ovqat va kimyo mahsulotlari ishlab chiqariladi. Shu atrofdagi mahallalarida yashovchi 6 mingdan ziyod aholi ish bilan ta’milanmoqda. Viloyatda yigit-qizlar uchun ko‘p dasturlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan yili uyushmagan yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 140 milliard so‘m mablag‘ berilib, 6 mingdan ziyod yosh o‘z yo‘lini topdi.

Shuningdek, 2,5 ming hektar ekin maydonlarini ajratish natijasida 20 ming yoshlar bandligi ta’milandi.

Kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotiga qo‘sadigan hissasini oshirilishini, kichik sanoat zonalarining yaratilishi, investitsion muhit va raqobat muhitini yaxshilanishi, kichik biznes bilan davlat-xususiy sherikchiligi doirasida davlat xaridlari hajmini kengaytirilishi, yirik va kichik korxonalar o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlanishi, innovatsiya jarayonlariga tadbirkorlik sub'yeqtalarini jalb qilish orqali ko‘rishimiz mumkin.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlarga asoslanib kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha Namangan viloyatida ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlarni tahlil qilish bu borada juda faol ishlar olib borilgan degan xulosaga kelishimizga imkon beradi:

kichik biznesni mahalliy qo’llab-quvvatlash va qo’llab-quvvatlashning yagona markazi bo‘lgan “Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bo‘yicha viloyat markazi”ni tashkil etish;

biznes-inkubatorlarni shakllantirish; kichik va o‘rta biznes bilan kichik miqdordagi ishchi uchrashuvlar, davra suhbatlari, konferentsiyalarni o’tkazish va kichik va o‘rta biznes sohasida yordam berish;

kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun mavjud bo'lgan infratuzilma bo'yicha mas'ul Davlat idoralari tomonidan bepul maslahatlarni o'tkazish, viloyat mahalliy byudjeti hisobidan subsidiyalar berish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiutlar:

1. Bekmuradov A., Sattorov S., To'raev J., Soliev Q., Ro'ziev S. Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji –davr talabi. –T.: TDIU, 2005. -345 b.
2. Karimov F., Xodjaev R. Kichik biznesni boshqarish. –T.: «Iqtisod-moliya», 2010. -374 b.
3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalshtirish, boshqarish. O'quv qo'llanma, mualliflar jamoasi. T.: «Fan va texnologiyalar», 2005. – 415 b. 20.
- 4.Qoraliev T.M., Yaxshiboev G'.Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy ta'minlash mexanizmi. Monografiya.T.:Akademiya, 2006 у. 55 21.
- 5.Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining normativ hujjatlari. -T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2011. – 115 b. 22.
6. A.O'lmasov, A.Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi: - T.: "Sharq", 2006.-315 b. 23.
- G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. -T.: "Moliya", 2003. - 332 b.
- 7.B.H. Медведева, Е.А. Дранникова, Г.А. Нарожная "ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ" УДК 338.24 л. 25
8. Попов Г.Ю., Медведева В.Н. Алгоритм формирования стратегии социальноэкономического развития муниципальных образований // Вопросы образования и науки: теоретический и методический аспекты: сб. Науч. Тр. По материалам Международной научнопрактической конференции 31 мая 2014г. 11 частях. Ч.8. Тамбов: ООО «Консалтинговая компанияЮКОМ». 2014. С. 122.
9. Попов Г.Ю., Медведева В.Н. Формирование стратегии развития муниципального образования // Актуальные проблемы современной науки. 2014. Т. 168. С. 168
10. Кичик саноат зоналарини барпо этиш ва ривожлантиришнинг ташкилий-иктисодий асосларини такомиллаштириш". - Т.: Иктисодиёт, 2020. - 135 б.

Internetdagi saytlar

11. www. stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti
- 12.. www.tfi.uz - Toshkent moliya instituti sayti
13. www. lex.uz - Qonun hujjatlari to'plami sayti
14. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti
15. www.finance.uz - Iqtisodiy ma'lumotlar bazasi
- 16.www.biznes-daily.uz/uz/51334-kichik-sanoat-zonasi-imkon.